

## Ota-onangizni e'zozlang!



11:30 / 06.04.2019 2726

Qadrlı bolajonlar! Barchamiz bizni dunyoga keltirgan, tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onamizni hurmat qilishimiz, e'zozlashimiz lozim. Quyida shu haqda ba'zi tavsiyalarni keltiramiz:

Har kun ertalab uyqudan turgach, maktabdan kelganingizda, ota-onangiz ishdan yoki boshqa biror joydan kelganlarida ularga salom bering.

Biror joyga chiqmoqchi bo'lsangiz yoki biror ish qilmoqchi bo'lsangiz, ota-onangizdan ruxsat so'rang. Ular ruxsat bersalar yaxshi, ruxsat bermasalar xarxasha qilib ularni ranjitmang. Shuningdek, ularning xonalariga ham hamisha ruxsat so'rab kiring.

Ota-onangiz buyurgan har bir yaxshi ishni bajaring. Dangasalik qilib «Yo'q» demang. Ularga quloq soling.

Ovqatlanganda avval ular ovqatni boshlab berishlarini kuting. Ulardan oldin dasturxonga qo'l uzatmang, beodoblik bo'ladi.

Yo'lda yurganda ota-onangizdan oldinda yurmang. Ularning ortida yoki yonida yuring.

Ota-onangiz biror ish qilganda ularga yordamlasha olsangiz yordamlashing. Bo'lmasa, ularga xalal bermang.

Ota-onangiz sizga qilgan yaxshiliklari uchun ularga rahmat ayting. Ularni yaxshi ko'rishingizni tez-tez aytib turing. Yuzlaridan, qo'llaridan o'pib ularga mehringizni izhor qiling.

Ulardan tez-tez hol so'rab turing. «Dadajon, yaxshimisiz?», «Oyijon, yaxshimisiz?», «Sog'ligingiz yaxshimi?», «Ishdan yaxshi keldingizmi? Charchamadingizmi?» deb ularning holidan xabardor bo'ling.

Ularni ko'p duo qiling. Ayniqsa, namoz o'qiganingizdan keyin, Qur'on tilovat qilganingizdan keyin ularni ko'p-ko'p duo qiling. «Allohim, ular bizni kichikligimizdan to hozirgacha tarbiyalagani kabi O'zing ularga rahm qil. Ularga yaxshiliklar ber, umrlarini uzoq qil. Hamisha xursand, baxtli bo'lsinlar», – deng.

Ota-onangiz charchagan vaqtda sho'xlik qilib, shovqin solib ularni battar qiynamang. Biroz dam olgunlaricha o'z xonangizda bo'lib turing.

Kech bo'lganda ota-onangiz bilan xayrlashib, ularga yaxshi tilaklar bildirib, o'z o'rningizga borib yoting.

Ota-onaning yaqinlari – buvi-buva, amma-xola, tog'a-amakilarni hurmat qilish ham ota-onani hurmat qilishdek muhimdir. Ota-onasini hurmat qilgan bola ularni ham hurmat qiladi. Shuningdek, aka-ukalar, opa-singillar bilan ham ahil-inoq bo'lish lozim. Bir-biriga yaxshi muomala qilib, ishlarida yordamlashish kerak. O'zaro urishmang. Bundan ota-onangiz xafa bo'ladilar.

***G'iyosiddin Yusuf***